

O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

YANGI UZBEKISTON YOSHLARINI MA'NAVIY YETUK QILIB TARBIYALASHDA AJDODLARIMIZNING O'RNI VA ROLI

RO'ZIQULOV ILYOS MO'MINOVICH

*O'zbekiston Respublikasi
Milliy Gvardiya ixtisoslashtirilgan
o'quv markazi o'qituvchisi
ruzikuoviles3@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida yosh avlodni ma'naviy yetuk, vatanparvar va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash jarayonida ajdodlarimizning boy ma'naviy-ma'rifiy merosi, ularning g'oyalari va qarashlarining o'rnini hamda roli tahlil qilinadi. Xususan, Sharq mutafakkirlari va buyuk allomalarning axloq, ta'lim-tarbiya, komil inson g'oyalariga oid qarashlari asosida bugungi yoshlar tarbiyasining ustuvor yo'nalishlari yoritib beriladi. Maqolada ajdodlar merosining zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi bilan uyg'unligi, yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlashdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, yoshlar tarbiyasi, ma'naviy yetuklik, ajdodlar merosi, milliy qadriyatlar, komil inson, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya.

Kirish

Mamlakatimizda ma'naviy va jismoniy barkamol yosh avlodni tarbiyalash masalasi har doim davlat siyosatining muhim bir bo'g'ini bo'lib kelgan. Shu paytgacha bu borada ulkan ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, bu islohotlar bugungi davr talablari darajasida keng qamrovli emasligi hamda ba'zi sohalarida kamchiligi ko'rinib qolayotganligi hech kimga sir emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida shunday deb ta'kidlagan edi: "...yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz"⁵.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan yoshlarning porloq kelajagini yaratishga qaratilgan keng ko'lamli siyosatidan, yaratilayotgan keng imkoniyatlardan, samarali islohotlardan foydalangan holda yurtimiz yoshlari barkamol avlod sifatida, har bir o'g'il-qiz avvalo, chet tilini mukammal bilishi, kompyuter sohalarini chuqur o'rganishlari, internetdan foydalana olishi, milliy va diniy qadriyatlarga amal qilishlari, ilmiy izlanishlar olib borishlari, fidoyi Yurt farzandi bo'lishlari lozim. Bunday yoshlar yurtimiz tinchligini,

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. Toshkent. 2020 yil 29 yanvar



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

osoyishtaligini ta'minlay oladigan insonlar bo'lib, istiqbolni belgilashadi. Vatanimizning buyuk kelajagini qurish, oldimizda turgan katta-katta muammolarni yechish, mustaqilligimizni himoya qilish, hayotda milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi tamoyiliga amal qilib yashashdek muhim vazifalarni yoshlarimiz o'zining muqaddas burchi deb bilayotgani, ayniqsa, e'tiborga sazovordir.

Adabiyotlar Tahlili Va Metodlar

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarni ma'naviy yetuk etib tarbiyalash masalasi bugungi ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda muhim yo'nalishlardan biri sifatida keng o'rganilmoqda. Ushbu masala tarixiy, falsafiy, pedagogik va ma'naviy-ma'rifiy yondashuvlar asosida tadqiq etilib, ajdodlarimizning boy ilmiy va axloqiy merosi bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinmoqda. Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan komil inson g'oyasi, axloqiy poklik, ilm va tarbiyaning uyg'unligi haqidagi qarashlar yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy manbalarda ajdodlarimizning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari nafaqat tarixiy ahamiyatga ega ekanligi, balki ularning bugungi globallashuv sharoitida ham dolzarbligini yo'qotmaganligi ta'kidlanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma'naviy merosning o'rni alohida e'tirof etilib, ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish zarurati asoslab berilgan. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik, obyektivlik usulidan foydalanilgan bo'lib, mavzuni yoritishda tavsifiy, qiyosiy metodlardan foydalanildi. Maqolada Yangi O'zbekiston yoshlari tarbiyasida milliy ajdodlarning o'rni obyektiv yoritilgan holda, mavzuning dolzarbligini bayon qilishda Sh.M. Mirziyoyevning asarlari metodologik manba sifatida olindi.

Muhokama Va Natijalar

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi XXI asrga qadam qo'yganidan keyin yoshlarning ma'naviy-tarbiya masalasi yanada dolzarb, yanada muhim, hayot-mamot masalalaridan biriga aylanib qoldi. Men,- deb yozgan edi Mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov, - Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham muhim va dolzarbdur"⁶. Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa, bu masalada bo'shliq (ma'naviy bo'shliq) paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bugungi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama – qarshiliklar va ziddiyatlar keskin tus olmoqda.

⁶ "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari" to'g'risidagi qonun. 1991 yil.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, fohishabozlik, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” va shu kabi boshqa xavf – xatarlar tobora kuchayib, insoniyat ming yillar davomida amal qilib kelgan milliy, diniy va oilaviy qadriyatlar, e’tiqodlarga putur yetmoqda. Mana shunday va boshqa ko‘plab tahdidlar insoniyat hayotida, ayniqsa yoshlar tarbiyasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani – ayni haqiqat va buni hech kim inkor eta olmaydi. Yoshlarimiz tarbiyasi – bu bir kishining ishi emas. Agar hammamiz birgalashib harakat qilsak, yoshlarimiz Vatan va el – yurt koriga yaraydigan insonlar bo‘lib ulg‘ayadilar. Yaxshi tarbiya insonga ma’naviyat kabi ona suti, ota na’munasi va ajdodlar o‘giti bilan birga singadi. “O‘z xalqiga, uning an‘analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o‘z xalqini millatlarning butunjahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o‘z Vatanining haqiqiy jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas”⁷.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ajdodlarimizning ma’naviy qarashlari yoshlar tarbiyasida faqat tarixiy meros sifatida emas, balki amaliy tarbiyaviy vosita sifatida qo‘llanilishi lozim. Xususan, ularni o‘quv dasturlari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va tarbiyaviy mashg‘ulotlar mazmuniga singdirish orqali yoshlarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira va ma’naviy mas’uliyatni rivojlantirish mumkin. Umuman olganda, olib borilgan muhokamalar va olingan natijalar Yangi O‘zbekiston yoshlari ma’naviy yetukligini ta’minlashda ajdodlarimiz merosining o‘rni va roli strategik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot xulosalari ushbu merosni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi va kelgusidagi tadqiqotlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa Va Takliflar

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi kunda davlatimiz tomonidan yoshlarning porloq kelajagini yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli siyosatidan, yaratilayotgan keng imkoniyatlardan, samarali islohotlardan foydalangan holda yurtimiz yoshlari barkamol avlod sifatida, har bir o‘g‘il-qiz avvalo, chet tilini mukammal bilishi, kompyuter sohalarini chuqur o‘rganishlari, internetdan foydalana olishi, milliy va diniy qadriyatlarga amal qilishlari, ilmiy izlanishlar olib borishlari, fidoyi Yurt farzandi bo‘lishlari lozim. Bunday yoshlar yurtimiz tinchligini, osoyishtaligini ta’minlay oladigan insonlar bo‘lib, istiqbolni belgilashadi. Vatanimizning buyuk kelajagini qurish, oldimizda turgan katta-katta muammolarni yechish, mustaqilligimizni himoya qilish, hayotda milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligi tamoyiliga amal qilib yashashdek muhim vazifalarni yoshlarimiz o‘zining muqaddas burchi deb bilayotgani, ayniqsa, e’tiborga sazovordir. Barkamol yoshlarni tarbiyalashdek

⁷ Karimov. I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. T.:

“O‘zbekiston”, 1998, 17 – bet.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

porloq niyatimiz uchun bizda ma'naviy asos bor. Mana shu ma'naviy meroslardan unumli foydalangan holda, o'zbek yoshlari har qanday sohada yurtimizni dunyo tan oladigan Yurt sifatida himoya qilishlariga hamda har doim "O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmasligi"ga ishonamiz.

Takliflar

1. Ajdodlarimizning ma'naviy-ma'rifiy merosini umumta'lim maktablari, akademik litsey va oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga tizimli ravishda integratsiya qilish zarur.

2. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan tarbiyaviy mashg'ulotlar, davra suhbatlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mazmunida buyuk allomalar va mutafakkirlarning g'oyalari asosiy manba sifatida qo'llanilishi lozim.

3. Ta'lim jarayonida ajdodlarimiz merosini o'rganishga bag'ishlangan innovatsion pedagogik metodlar va interaktiv texnologiyalarni keng joriy etish maqsadga muvofiq.

4. Yoshlar orasida milliy qadriyatlarga hurmat va tarixiy xotirani mustahkamlash maqsadida ilmiy-ommabop nashrlar, elektron resurslar va multimedia materiallarini yaratish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008. — 176 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021. — 464 b.
3. Jo'rayev T. Ma'naviy tarbiya asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 212 b.
5. Xudoyberganov A. Yoshlar ma'naviyati va milliy qadriyatlar. — Toshkent: Akademnashr, 2020. — 184 b.
6. Qosimov B. Milliy tarbiya nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: O'qituvchi, 2018. — 256 b.
7. To'xtaxodjayeva M. Pedagogik tafakkur va ma'naviy tarbiya. — Toshkent: Fan, 2017. — 198 b.
8. Raximov S. Komil inson konsepsiyasi va yoshlar tarbiyasi. — Toshkent: Navro'z, 2020. — 160 b.
9. Abdurahmonov A. Ajdodlar merosi va zamonaviy ta'lim. — Toshkent: Universitet, 2021. — 144 b.
10. Mardonov O. Globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviyati. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. — 172 b.

